

Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan  
foydali qazilmalar yangi konlarini  
ochganlik yoki ilgari ma'lum bo'lgan  
konlarni tubdan qayta baholaganlik  
uchun pul mukofotlari to'g'risida

## USLUBIY QO'LLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi  
Toshkent – 2025



**Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar yangi konlarini ochganlik yoki ilgari ma'lum bo'lgan konlarni tubdan qayta baholaganlik uchun pul mukofotlari to'g'risida uslubiy qo'llanma.** – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – 19 b.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasida sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar bo'yicha yangi konlarni ochish yoki mavjud konlarni tubdan qayta baholash natijasida erishilgan ilmiy-amaliy yutuqlarni rag'batlantirish mexanizmlarini belgilab beradi. Ushbu qo'llanma geologiya-qidiruv faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo'llash, geologik izlanishlarning samaradorligini oshirish hamda konchilik sanoatida yuqori natijalarga erishgan mutaxassislarni moddiy rag'batlantirishning yagona tartibini shakllantirishga qaratilgan.

Uslubiy qo'llanma Tog'-kon sanoati va geologiya sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar, geologiya-qidiruv ekspeditsiyalari, ilmiy tadqiqot muassasalari, yer qa'ridan foydalanuvchilar hamda geologik jarayonlarga jalb qilingan boshqa mutaxassislar uchun mo'ljallangan bo'lib, foydali qazilma konlarini aniqlash va qayta baholash natijalariga ko'ra pul mukofotlarini tayinlash, hisoblash va berish tartibini aniq, shaffof va bir xil metodika asosida amalga oshirishda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y.

**FOYDALANILGAN  
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |                                                                                     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|
| <p style="text-align: center;">“O‘zbekiston Respublikasining<br/>Yer qa’ri to‘g‘risida”gi Qonuni</p>                                                                                                                                                                                                                                                                  |    |
| <p style="text-align: center;">O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining<br/>2022-yil 19-yanvardagi 92-son “Geologiya-<br/>razvedka ishlarini tashkil etish va olib borish<br/>tizimi samaradorligini yanada oshirish<br/>chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori</p>                                                                                                    |    |
| <p style="text-align: center;">Vazirlar Mahkamasining 2007-yil<br/>22-noyabrdagi 245-sonli “Sanoat<br/>ahamiyatiga ega bo‘lgan foydali qazilmalar<br/>yangi konlarini ochganlik yoki ilgari ma’lum<br/>bo‘lgan konlarni (konlarning uchastkalarini)<br/>tubdan qayta baholaganlik uchun pul<br/>mukofotlari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash<br/>haqida”gi qarori</p> |  |

## KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda yer qa'ridan oqilona foydalanish, foydali qazilmalar zaxiralarini qayta baholash, yangi konlarni izlash va o'zlashtirish jarayonlarini rag'batlantirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Geologiya-qidiruv ishlarining zamonaviy usullar asosida olib borilishi, mavjud konlar bo'yicha ma'lumotlarning aniqligini oshirish hamda sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan yangi konlarni aniqlash orqali mineral-xomashyo bazasini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot muassasalari, geologiya xizmatlari va investorlar faoliyatini moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur uslubiy qo'llanma sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalarning yangi konlarini ochganlik yoki mavjud konlarni tubdan qayta baholaganlik uchun beriladigan pul mukofotlarini tayinlash tartibini huquqiy va tashkiliy jihatdan izohlab beradi. Qo'llanmada pul mukofotiga da'vogar shaxslar va tashkilotlar doirasi, mukofot miqdorini belgilash mezonlari, zarur geologik-hisoblash hujjatlarini tayyorlash talablari, ekspertiza va tasdiqlash bosqichlari hamda pul mukofotlarini tayinlash va to'lash tartibi batafsil yoritiladi. Shuningdek, unda nizoli holatlarni ko'rib chiqish,

mas'ul organlar vakolatlari va ularning o'zaro hamkorlik mexanizmlari bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilib, geologiya-qidiruv sohasida rag'batlantirish tizimini yagona, izchil va shaffof tarzda qo'llashga qaratilgan yondashuvlar aks etgan.



## Umumiy qoidalar



### **Bilib oling!**

Pul mukofotlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalarning ilgari ma'lum bo'lmagan konlarini ochgan, qidirgan, shuningdek ilgari ma'lum bo'lgan konda uning sanoat ahamiyatini jiddiy ravishda ko'paytiradigan foydali qazilmalarning qo'shimcha zaxiralarini yoki yangi foydali qazilmalar va qo'shib chiqadigan foydali komponentlarni ochgan, qidirgan shaxslar pul mukofoti olish huquqiga ega bo'ladi.

Foydali qazilmalarning qo'shimcha zaxiralari, yangi foydali qazilmalar yoki qo'shilib chiqadigan komponentlar aniqlanganda, sanoat ahamiyatiga ega ilgari ma'lum konni tubdan qayta baholash to'g'risidagi qaror zaxiralar hisobi materiallarini ko'rib chiqish chog'ida O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadi.



### **Bilib oling!**

Pul mukofoti faqat foydali qazilmalar koni (konning uchastkasi) zaxiralari belgilangan tartibda tasdiqlangandan keyin to'lanishi mumkin.



Zaxiralar tasnifini foydali qazilmalarning har xil turlari konlariga nisbatan qo'llashga doir yo'riqnomaga muvofiq konlar geologik tarkibining murakkabligi bo'yicha **4 guruh**ga bo'linadi.

**S2 toifali qattiq foydali qazilma konlari zaxiralari  
foyda qazilma turiga va konning geologik  
tuzilishining murakkabligi guruhiga qarab:**

- a) geologik tarkibi murakkabligiga ko'ra  
birinchi guruh konlari bo'yicha —  
**tasdiqlangan zaxiralarning 30 foizi;**
- b) geologik tarkibi murakkabligiga ko'ra  
ikkinchi guruh konlari bo'yicha —  
**tasdiqlangan zaxiralarning 50 foizi;**
- v) geologik tarkibi murakkabligiga ko'ra  
uchinchi guruh konlari bo'yicha —  
**tasdiqlangan zaxiralarning 70 foizi;**
- g) geologik tarkibi murakkabligiga ko'ra  
to'rtinchi guruh konlari bo'yicha —  
**tasdiqlangan zaxiralarning 100 foizi**  
**miqdorida hisobga olinadi.**

Kompleks konning umumiy zaxiralari va sanoatdagi ahamiyati qazib olish rentabelligi texnologik sinovlar va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bilan tasdiqlangan qo'shilib chiqadigan foydali komponentlar mavjud bo'lgan taqdirda o'tkazma qiymat koeffitsiyentlarini qo'llash yo'li bilan asosiy foydali qazilmaga qayta hisoblab chiqib aniqlanadi.

## Foydali qazilmalar konini (konning uchastkasini) ochganlik yoki tubdan qayta baholaganlik uchun pul mukofoti miqdorini belgilash tartibi



Foydali qazilmalarning yangi konini ochganlik yoki ilgari ma'lum bo'lgan konni (*konning uchastkasini*) tubdan qayta baholaganlik uchun pul mukofoti miqdorini belgilash to'g'risidagi materiallarni ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi (*keyingi o'rinlarda Kon-geologiya vazirligi deb ataladi*) huzuridagi Foydali qazilmalar konlarini ochganlik

uchun mukofotlash bo'yicha idoralararo komissiya (*keyingi o'rinlarda Idoralararo komissiya deb ataladi*) tashkil etiladi.



### **Bilib oling!**

Idoralararo komissiya Kon-geologiya vazirligi, yetakchi kon korxonalari hamda neft va gaz qazib oluvchi korxonalar, tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot institutlari vakillaridan shakllantiriladi.



Kon-geologiya vazirligining raisi Idoralararo komissiyaning raisi hisoblanadi. Idoralararo komissiyaning tarkibi tegishli korxonalar, tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan kelishgan holda Kon-geologiya vazirligi raisi tomonidan tasdiqlanadi.



Idoralararo komissiya tegishli Nizomga va zaxiralar tasnifini foydali qazilmalarning tegishli turiga qo'llashga doir yo'riqnoma asosida konni foydali qazilmalar zaxiralari miqdori bo'yicha konning tegishli guruhiga tegishli deb topadi va mana shu asosda konni ochganlik yoki tubdan qayta baholaganlik uchun pul mukofoti miqdorini belgilaydi.

Asl metallar, uran, volfram, qalay, molibden, boshqa nodir metallar yoki zaxiralari I guruh konlari uchun belgilangandan ancha oshadigan uglevodorodlar konlari ochilgan taqdirda u O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan foydali qazilma konlari zaxiralari bo'yicha noyob hisoblanishi mumkin.

### **DIQQAT!**

Bunda zaxiralari bo'yicha noyob foydali qazilma konini ochganlik uchun maxsus pul mukofoti miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan belgilanadi.

**Maxsus pul mukofotining miqdori konni ochganlik, sanoat jihatidan baholaganlik uchun mukofotlashga tavsiya etilgan shaxslarning qo'shgan shaxsiy hissasiga bog'liq holda belgilanadi va u quyidagi miqdordan oshmasligi kerak:**



**a) asl metallar, uran, volfram, qalay, molibden va boshqa nodir metallar, uglevodorod xom ashyosining yangi konlarini ochganlik yoki ilgari ma'lum bo'lgan konni (kon uchastkalarini) tubdan qayta baholaganlik uchun:**

**I guruh konlari bo'yicha** — bazaviy hisoblash miqdorining 180 baravari miqdorida;

**II guruh konlari bo'yicha** — bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravari miqdorida;

**III guruh konlari bo'yicha** — bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravari miqdorida;

**IV guruh konlari bo'yicha** — bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida;

**b) foydali qazilmalar boshqa turlarining yangi konlarini ochganlik yoki ilgari ma'lum bo'lgan konlarni (kon uchastkalarini) tubdan qayta baholaganlik uchun:**

**I guruh konlari bo'yicha** — bazaviy hisoblash miqdorining 120 baravari miqdorida;

**II guruh konlari bo'yicha** — bazaviy hisoblash miqdorining 90 baravari miqdorida;

**III guruh konlari bo'yicha** — bazaviy hisoblash miqdorining 60 baravari miqdorida;

**IV guruh konlari bo'yicha** — bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravari miqdorida.

Maxsus pul mukofotining eng katta summasi foydali qazilmalarning yangi konini ochgan shaxslarga yoki ularning ilgari ma'lum bo'lgan konni (kon uchastkasini) tubdan qayta baholashga eng ko'p hissa qo'shgan shaxslarga tayinlanadi.

Mukofot mutaxassisning obyektini ochish va qidirish davridagi ishlari natijalariga qarab, uning pul mukofotini tayinlash to'g'risidagi masalani hal etish davridagi ish joyidan qat'i nazar, belgilanadi.



Agar konni ochgan shaxs zaxiralarni hisoblash bilan birga hisobot muallifi ham bo'lsa, u holda Idoralararo komissiya qaroriga ko'ra pul mukofoti miqdori qo'shimcha ravishda **10 – 20** foizga oshirilishi mumkin.

Mukofotlash uchun tavsiya etilgan boshqa shaxslarga maxsus pul mukofoti miqdori konni ochgan shaxslarga yoxud zaxiralarni hisoblash bilan birga hisobot mualliflariga belgilangan miqdordan oshmasligi kerak.



## Pul mukofotining maxsus miqdorini belgilash shartlari va uni to'lash tartibi

Idoralararo komissiya 2 oy muddatda taqdim etilgan materiallarni ko'rib chiqadi va foydali qazilmalarning yangi konini ochgan, qidirgan shaxslarga yoki ilgari ma'lum bo'lgan konni (kon uchastkasini) tubdan qayta baholashga salmoqli hissa qo'shgan shaxslarga pul mukofotining maxsus miqdorini belgilash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Pul mukofotlarini to'lash to'g'risidagi qaror Idoralararo komissiya protokoli bilan rasmiylashtiriladi, protokol imzolangandan keyin 5 kun muddatda mukofotlash uchun materiallar taqdim etgan korxonalarga, tashkilotlarga yuboriladi.

Idoralararo komissiya qarori asosida pul mukofotini to'lash Kon-geologiya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.



Pul mukofotiga tavsiya qilingan shaxs vafot etgan taqdirda unga tegishli bo'lgan pul mukofoti uning merosxo'riga qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda to'lanadi.



## Pul mukofotini to'lash manbai

Foydali qazilmalarning yangi konlarini ochganlik yoki ilgari ma'lum bo'lgan konlarni (kon uchastkalarini) tubdan qayta baholaganlik uchun pul mukofotlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida geologiya-qidiruv ishlari uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida Kon-geologiya vazirligi tomonidan to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga aniqlangan uglevodород xom ashyosining yangi konlarini ochganlik yoki ilgari ma'lum bo'lgan konlarni (kon uchastkalarini) tubdan qayta baholaganlik uchun pul mukofotlari "O'zbekneftgaz" AJning o'z mablag'lari hisobiga to'lanadi.

"Navoiy KMK" DK va "Olmaliq KMK" AJ mablag'lari hisobiga moliyalashtirilgan holda qimmatbaho, rangli metallar va uranning yangi konlarini ochganlik yoki ilgari ma'lum bo'lgan konlarni (kon uchastkalarini) tubdan qayta baholaganlik uchun pul mukofotlari "Navoiy KMK" DK va "Olmaliq KMK" AJ mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari

tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq pul mukofotini to'lash xarajatlari boshqa operatsion xarajatlarga kiritiladi.



## Yakunlovchi qoidalar

Idoralararo komissiyaning foydali qazilmalarning yangi konlarini ochganlik yoki ilgari ma'lum bo'lgan konlarni (kon uchastkalarini) tubdan baholaganlik uchun pul mukofotlarini to'lash masalalari bo'yicha qarorlari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar yangi konlarini (konning, foydali qazilmaning nomi) ochganlik yoki ilgari ma'lum bo'lgan konlarni (konlarning uchastkalarini) tubdan qayta baholaganlik uchun pul mukofotiga tavsia etilayotgan shaxslar ro'yxati

Kon \_\_\_\_\_ yilda ochilgan.  
Qidiruv (qayta baholash) \_\_\_\_\_ yilda o'tkazilgan.  
Zaxiralar \_\_\_\_\_ yilda o'rganib chiqish holati bo'yicha \_\_\_\_\_ yilda tasdiqlangan.  
Seysmologiya-qidiruv ishlari \_\_\_\_\_ yilda o'tkazilgan

| T/r | Familiyasi, ismi, otasining ismi | Manzili, yashash joyi | Ish joyi va egallab turgan lavozimi |                                       | Kon ochilgan, qidirilgan yoki qayta baholangan davrda ishlagan vaqti (ishlagan yillari) | Kon ochish va qidirishda (qayta baholashda) qatnashish tavsifi va darajasi | Maxsus pul mukofotining taklif etilayotgan miqdori, so'm |
|-----|----------------------------------|-----------------------|-------------------------------------|---------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|
|     |                                  |                       | kon                                 | hozirgi ochilgan va qidirilgan davrda |                                                                                         |                                                                            |                                                          |
| 1   | 2                                | 3                     | 4                                   | 5                                     | 6                                                                                       | 7                                                                          | 8                                                        |

I. Konni ochgan va (yoki) qidirgan shaxslar.

II. Kon ochilishiga olib kelgan yer osti boyliklarini geologik o'rganish ishlarida bevosita qatnashgan va (yoki) konni qidirishga (tubdan qayta baholashga) va uning sanoatdagi ahamiyatini aniqlashga alohida hissa qo'shgan shaxslar.

Jami: \_\_\_\_\_ so'm

Korxona (tashkilot) rahbari \_\_\_\_\_  
(imzo, F.I.O. (gerbli muhr))

**Oziq-ovqat mahsulotlariga, ularni ishlab chiqarish  
vositalariga va xalq iste'moli mollariga sanitariya-  
epidemiologik xulosa berish tartibiga oid  
uslubiy qo'llanma**

**Kompyuterda sahifalovchi:**

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: [www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz)

e-mail: [info@adolatmarkazi.uz](mailto:info@adolatmarkazi.uz)

Qog'oz bichimi 60x841/16. “Calibri” garniturasida.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i \*

Nashriyot hisob tabog'i \*\*. Adadi \*\* nusxa.

\*\*\*-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.